



**SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI**

**Xakimova Dilnozaxon Sa’dulla qizi**

Andijon mashinasozlik instituti

[xakimovadilnoza15@gmail.com](mailto:xakimovadilnoza15@gmail.com)

Orcid: <https://orcid.org/0009-0004-1392-1228>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar, raqamli tizimlar, telemeditsina, sun’iy intellekt va robototexnika kabi yangi usullarning sog‘liqni saqlash tizimiga ta’siri, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish va kasalliklarni oldini olishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlar va global tajribalarga asoslangan yondashuvlar ham muhokama qilingan.

**ABSTRACT**

This article analyzes the development trends and economic indicators of the healthcare sector in our country. The influence of modern technologies and innovations, digital systems, new methods such as telemedicine, artificial intelligence and robotics on the healthcare system, the importance of improving the quality of medical services and preventing diseases is studied. Also, the reforms implemented in the healthcare sector of Uzbekistan, measures aimed at improving the qualifications of medical workers, promoting a healthy lifestyle and approaches based on global experiences were also discussed.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются тенденции развития и экономические показатели сферы здравоохранения в нашей стране. Изучено влияние современных технологий и инноваций, цифровых систем, новых методов, таких как телемедицина, искусственный интеллект и робототехника, на систему здравоохранения, важность повышения качества медицинских услуг и профилактики заболеваний. Также были обсуждены реформы, реализуемые в сфере здравоохранения Узбекистана, меры, направленные на повышение квалификации медицинских работников, пропаганду здорового образа жизни и подходы, основанные на мировом опыте.





**Kalit so‘zlar:** sog‘liqni saqlash, tendensiya, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, telemeditsina, sun’iy intellekt, tibbiy xizmatlar, islohot, tibbiyat xodimlari.

**Keywords:** health care, trend, innovation, digital technologies, telemedicine, artificial intelligence, medical services, reform, medical staff.

**Ключевые слова:** здравоохранение, тренд, инновации, цифровые технологии, телемедицина, искусственный интеллект, медицинские услуги, реформа, медицинский персонал.

## KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda sog‘liqni saqlash sohasini tubdan takomillashtirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish, malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash, sohaga yangi boshqaruv usullarini joriy etish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasini rivojlanish tendensiyalari zamonaviy tibbiyat texnologiyalarining, innovatsiyalarning va raqamli yondashuvlarning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda sun’iy intellekt, genetika, biotexnologiyalar va tibbiy robototexnikaning qo‘llanilishi orqali kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, masofaviy tibbiy xizmatlar va telemeditsina kabi yangi yo‘nalishlar kengaymoqda. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimlarining barqarorligi va samaradorligini ta’minlash uchun ularning moliyaviy va boshqaruv tizimlari ham takomillashmoqda[1].

Vazirlar Mahkamasining “Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2025 yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2025 yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Quyidagilar dasturning eng asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi[2]:

- tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inini kuchaytirish, ayniqsa, qishloq va mahallalarda tibbiy xizmatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish;
- tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda birlamchi bo‘g‘in qamrovini kengaytirish;
- oqqon va og‘ir irsiy gematologik kasalliklarni davolash bo‘yicha ishlarni yuqori bosqichga ko‘tarish;
- jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini ta’minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish;





- hududlarda sog‘lijni saqlashni tashkil etishning “klaster” modelini shakllantirish, tibbiyat va farmatsevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish;
- tibbiyat sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilashda mahalliy xususiyatlarni hisobga olish;
- tibbiy xizmatlar uchun klinik-xarajat guruhlari bo‘yicha har bir davolangan holat uchun to‘lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, majburiy tibbiy sug‘urtani bosqichma-bosqich joriy etish;
- patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;
- tibbiy genetika, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, “Sog‘lom bola” hududiy ko‘p tarmoqli tibbiyat majmualari va ma’lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;
- farmatsevtika tarmog‘ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish;
- tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, professor-o‘qituvchilar ilg‘or xorijiy davlatlarda malaka oshirishini ta’minalash, tibbiyat fanini rivojlantirish sohasidagi yangilanishlarga keng yo‘l ochish;
- tibbiyat ilmiy va ta’lim muassasalarini xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o‘tkazish) hamda zamonaviy ta’lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish choralarini ko‘rish;
- “elektron sog‘lijni saqlash” tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasi majmuasini yaratish.

Sog‘lijni saqlash sohasi har doim jamiyatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Insoniyatning rivojlanishi bilan birga, tibbiyat va sog‘lijni saqlash sohalari ham yangi bilimlar, texnologiyalar va yondashuvlar asosida o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda sog‘lijni saqlash tizimi nafaqat kasalliklarni davolash, balki ularga qarshi oldini olish va sog‘lom turmush tarzini ta’minalash borasida ham samarali faoliyat yuritishi zarur. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar, raqamlı yondashuvlar, sun’iy intellekt va biotexnologiyalar kabi sohalar sog‘lijni saqlash tizimini tubdan yangilashga imkon bermoqda[3]. Ushbu maqolada sog‘lijni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalari, yangi innovatsiyalar va global miqyosda sodir bo‘layotgan





o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Rivojlanayotgan texnologiyalar va yangi yondashuvlarning sog‘liqni saqlash tizimiga qanday ta’sir qilishi, uning samaradorligini oshirish va barqarorligini ta’minlashda qanday rol o‘ynashi hamda kelajakda sog‘liqni saqlash sohasining qanday o‘zgarishlarni kutishi haqida so‘z yuritamiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Sog‘liqni saqlash sohasidagi tendensiyalarni tahlil qilishda turli ilmiy manbalarga murojaat qilish zarur. Xususan, sog‘liqni saqlashning global tendensiyalarini o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlanmalar mavjud.

Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi ko‘pincha yangi texnologiyalar va innovatsiyalar bilan bog‘liqdir. Xususan, «telemeditsina» (masofaviy tibbiy yordam), «sun’iy intellekt» va «robototexnika» kabi texnologiyalar sog‘liqni saqlash sohasida keng tarqalmoqda. A. S. Kuznetsov va M. V. Shapiro (2022) o‘z ilmiy ishlarida sun’iy intellektning tibbiyotdagi o‘rni va uning diagnostikaga ta’sirini tahlil qilgan. Ular sun’iy intellekt yordamida kasallikkarni erta aniqlash va davolash samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatdilar.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar sog‘liqni saqlashda keng qo‘llanilmoqda. «Elektron tibbiy kartalar» va «raqamli diagnostika» tizimlari orqali bemorlarning ma’lumotlari onlayn ravishda uzatiladi, bu esa tibbiy xizmatlarning samaradorligini oshiradi. E. K. Lebedev va S. N. Tikhonov (2021) raqamli sog‘liqni saqlash tizimlarining foydalari va muammolarini o‘rganib, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli tizimlarning o‘rni katta ekanligini ta’kidlashgan.

Sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalaridan biri, kasallikkarning oldini olishga qaratilgan yondashuvlarning rivojlanishidir. Bunday yondashuvlar, ayniqsa, jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish va psixologik sog‘likni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. M. A. Kalanov va G. S. Ergashev (2023) sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali kasallikkarning oldini olish va umumiy salomatlikni yaxshilash bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib borganlar.

Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ular uchun doimiy ta’lim tizimlarini tashkil etish, sog‘liqni saqlash tizimining sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda xalqaro tajribalar va innovatsion usullar asosida tibbiy kadrlarni tayyorlash dasturlarini yaratish muhimdir. B. M. Melikhov (2022) o‘z ilmiy ishida tibbiyot xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha O‘zbekistonning tajribasini tahlil qilgan va xalqaro ta’lim tizimlari bilan hamkorlik qilishning ahamiyatini ta’kidlagan[4].

Sog‘liqni saqlash sohasida global tendensiyalar har doim yangi texnologiyalarni, uslublarni va amaliyotlarni joriy etishga intiladi, bu esa jahon bo‘ylab odamlarning salomatligini yaxshilashga yordam bermoqda. Ushbu maqolada sog‘liqni saqlash





sohasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, shu jumladan ularning samaradorligi, yangi texnologiyalar va amaliyotlar bilan bog'liq o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

## NATIJALAR


Mamlakatimizda hozirgi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiy ko'rsatkichlariga nazar soladigan bo'lsak, sog'liq saqlash sohasidagi harajatlar hajmi oxirgi 10 yillikda sezilarli darajada oshgan. Bu ham yildan yilga bu sohaga bo'lgan e'tibor va amalgam oshirilayotgan islohotlar natijasidir[5]. Quyida keltirilgan 1-jadvaldagi statistik ma'lumotlarga ko'ra 2012-yilda O'zbekiston Respublikasi xizmatlar sohasida umumiy haratlar hajmi 51809 mlrd so'mni tashkil qilib, bundan 0,9 foizi ya'ni 480 mlrd so'm sog'liqni saqlash sohasidagi harajatlar uchun sarflangan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa, umumiy harajatlar hajmi 564 777,7 mlrd so'mni tashkil etib, bundan 2 foizi ya'ni 11 315,5 mlrd so'm sog'liqni saqlash sohasidagi harajatlar uchun sarflangan[6].

*1-jadval*

### O'zbekiston Respublikasi xizmatlar sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari

Nº	Yillar	Umumiy harajatlar hajmi (mlrd. so'mda)	Sog'liqni saqlash sohasidagi harajatlar hajmi (mlrd. so'mda)	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati
1	2012	51809,0	480,3	0,9	134,1
2	2013	65337,6	635,6	1,0	127,2
3	2014	82261,2	845,3	1,0	114,2
4	2015	89326,3	1094,7	1,2	117,3
5	2016	90 991,7	1 345,9	1,5	116,1
6	2017	116795,7	1602,4	1,4	110,1
7	2018	146836,3	2053,0	1,4	114,9
8	2019	190 356,0	2 930,3	1,5	113,4
9	2020	218 853,5	3 209,4	1,5	89,9
10	2021	283 301,6	5 018,8	1,8	126,4
11	2022	357 554,5	6 384,2	1,8	111,5
12	2023	470 286,5	8 441,2	1,8	111,6
13	2024	564 777,7	11 315,5	2,0	108,6





### *1-rasm. O'zbekiston Respublikasi xizmatlar sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari.*

#### **MUHOKAMA**

Sog'liqni saqlash tizimida «raqamli diagnostika» va «sun'iy intellekt» texnologiyalarining keng joriy etilishi kasalliklarni erta aniqlashda va davolashda katta yordam beradi. Masalan, sun'iy intellekt orqali xatarli kasalliklarni oldindan aniqlash va bemorlarni profilaktik tekshiruvlarga jalb qilish mumkin. Shuningdek, «elektron tibbiy kartalar» orqali bemorlar haqida barcha ma'lumotlar bir joyda jamlanadi, bu esa davolash jarayonini yanada samarali va osonlashtiradi[7].

Biroq, yangi texnologiyalarni joriy etish ham o'zida bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, tibbiyot xodimlarining yangi texnologiyalarni to'g'ri va samarali ishlatishi uchun malaka oshirish dasturlarining samarali bo'lishi zarur. Shuningdek, yangi tizimlar va texnologiyalarni joriy etish uchun iqtisodiy resurslar va infratuzilma tayyorlash talab etiladi. Raqamli tibbiyot tizimlari va masofaviy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan texnik asboblar va dasturlarni rivojlantirish va qo'llashda davlatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim.

Sog'liqni saqlash sohasida qilingan ishlar, olib borilayotgan islohotlarni tahlil qilgan holda yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, biz bu sohani yanada rivojlantirish va uni amalga taqbiq qilish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz(2-rasm).



**Texnologiyalarni kengaytirish**

- Tibbiyot texnologiyalarini joriy etish va ularning samarali ishlatalishini ta'minlash uchun doimiy yangilanishlarni amalga oshirish kerak.

**Tibbiy xodimlarni malakasini oshirish**

- Tibbiyot xodimlarini zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish va malakasini oshirish uchun maxsus ta'lif dasturlarini ishlab chiqish muhimdir.

**Raqamli tizimlarni rivojlantirish**

- Elektron tibbiy kartalar, raqamli diagnostika va ma'lumotlar almashinuvli tizimlarini kengaytirish, bemorlarga tez va samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

**Prevensiya va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish**

- Sog'lijni saqlash tizimi faqat davolashga emas, balki kasalliklarning oldini olishga, aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ham yo'naltirilishi lozim.

**Xalqaro hamkorlik**

- Sog'lijni saqlash sohasidagi global tajribalarni o'rganish, xalqaro tibbiyot ta'limi va amaliyotlarini joriy etish bo'yicha samarali hamkorliklarni yo'lga qo'yish zarur.

***2-rasm. Sog'lijni saqlash sohasini rivojlantirish tendensiyalari.***

Bundan tashqari, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kasalliklarning oldini olish bo'yicha chuqurroq va tizimli yondashuvlarning joriy etilishi ham muhimdir. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy qilish, tibbiy xodimlarni doimiy ravishda malaka oshirish dasturlari va sog'lijni saqlashda raqamli tizimlarning rivojlanishi bu sohada yanada yaxshilanishlarga olib keladi.

**XULOSA**

Sog'lijni saqlash sohasidagi islohotlar va innovatsiyalar davom etar ekan, bu sohada ijobiy o'zgarishlar kuzatilishi kutilmoqda. Raqamli texnologiyalar, masofaviy yordam va sun'iy intellekt yordamida bemorlar uchun tibbiy xizmatlar yanada tezkor





va samarali bo‘ladi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va global tajribalarni joriy etish O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalari jahon miqyosida jiddiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalar, raqamli tizimlar va tibbiyotda yangi yondashuvlar sog‘liqni saqlashni yangi bosqichga olib chiqadi. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi ham yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali o‘z tizimini modernizatsiya qilmoqda. Bu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi, aholi salomatligini yaxshilashga, kasalliklarni oldini olishga va tibbiy xizmatlarning sifatini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va innovatsiyalar butun tizimni zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim ro‘l o‘ynaydi va kelajakda samarali natijalar berishi kutiladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining “Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2025 yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-dekabrdagi PQ-415-sonli qarori.
3. Xakimova Dilnozaxon Sa’dulla qizi. (2023). SHIFOKORLAR TOMONIDAN BEMORLARGA BERILADIGAN DORI RO‘YHATINI RAQAMLASHTIRISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 160–163. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.326>
4. Abdusattorov, Sarvar. (2023). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA JAHON DAVLATLARI SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI TAHLILI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 1. 5-10. 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp5-10.
5. <https://parliament.gov.uz/articles/1570>
6. <https://www.stat.uz/uz/>
7. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024>

